



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш...	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	<b>134</b>
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	<b>138</b>
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	<b>142</b>
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	<b>146</b>
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	<b>151</b>
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	<b>157</b>
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	<b>160</b>
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	<b>164</b>
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	<b>168</b>
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	<b>173</b>
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	<b>178</b>
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	<b>181</b>
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	<b>186</b>
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	<b>190</b>
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	<b>194</b>
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	<b>198</b>
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	<b>202</b>
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	<b>206</b>
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	<b>209</b>
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	<b>213</b>
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	<b>222</b>
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>227</b>
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	<b>230</b>
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	<b>235</b>
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	<b>239</b>
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	<b>243</b>
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	<b>247</b>
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	<b>251</b>
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	<b>254</b>
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	<b>257</b>

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA TAYYOR MAHSULOTLAR ISHLAB  
CHIQRISH VA SOTISH HISOBINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ УЧЕТА ПРОИЗВОДСТВА И  
РЕАЛИЗАЦИИ ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

ECONOMIC ASPECTS OF DEVELOPING ACCOUNTING FOR THE PRODUCTION  
AND SALE OF FINISHED PRODUCTS IN TEXTILE ENTERPRISES

Madaminjonov Azizbek Oybek o‘g‘li Andijon davlat texnika instituti  
1-kurs “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi magistratranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada to‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Tadqiqotda tayyor mahsulotlar hisobining iqtisodiy mazmuni, ishlab chiqarish jarayonida tannarxni shakllantirish, mahsulot harakati va sotishdan olinadigan daromadlarni hisobga olish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada amaldagi buxgalteriya hisobi tizimining imkoniyatlari hamda uni rivojlantirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** to‘qimachilik sanoati, tayyor mahsulotlar, ishlab chiqarish tannarxi, sotish jarayoni, buxgalteriya hisobi, daromadlar, moliyaviy natijalar.

В статье рассматриваются актуальные вопросы совершенствования бухгалтерского учета процессов производства и реализации готовой продукции на текстильных предприятиях. В ходе исследования раскрыта экономическая сущность учета готовой продукции, проанализированы особенности формирования производственной себестоимости, а также порядок отражения движения продукции и признания доходов от ее реализации. На основе действующих нормативно-правовых требований и научных подходов обоснованы основные направления развития учета готовой продукции в условиях рыночной экономики.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, готовая продукция, производственная себестоимость, реализация продукции, бухгалтерский учет, доходы, финансовые результаты.

This article discusses current issues of accounting for the production and sale of finished goods in textile enterprises. The study analyzes the economic essence of finished goods accounting, cost formation in production, product movement, and revenue recognition mechanisms. The article substantiates the prospects for developing accounting systems in textile enterprises.

**Keywords:** textile industry, finished goods, production cost, sales process, accounting, revenues, financial results.

To‘qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutuvchi tarmoqlardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi va bandlik darajasining ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Ushbu tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalar samaradorligi ko‘p jihatdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining to‘g‘ri tashkil etilishi hamda bu jarayonlarning buxgalteriya hisobida aniq va ishonchli aks ettirilishiga bog‘liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘qimachilik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, assortimentning kengayishi va sotish bozorlarining diversifikatsiyalanishi tayyor mahsulotlar hisobiga qo‘yiladigan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, mahsulot tannarxini aniqlash, sotishdan olinadigan daromadlarni o‘z vaqtida tan olish va moliyaviy natijalarni

to‘g‘ri hisoblash masalalari korxonalar faoliyatining barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, to‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobining nazariy hamda amaliy jihatlari buxgalteriya hisobi fanining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda moliyaviy va boshqaruv hisobining o‘zaro bog‘liqligi, ishlab chiqarish tannarxini shakllantirish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash mexanizmlari keng yoritilgan. Xususan, Abdusalomova N.B. va Temirov F.T. tomonidan tayyorlangan “Moliyaviy hisob” o‘quv qo‘llanmasida moliyaviy hisobning nazariy asoslari, hisob obyektlari va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi batafsil bayon etilgan. Ushbu manbada tayyor mahsulotlar hisobi moliyaviy natijalarni aniqlashda muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan [5]. Abduvaxidov F., Jo‘rayev N.Yu. va Sotivoldiyeva D.ning “Moliyaviy va boshqaruv hisobi” darsligida esa ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi va boshqaruv hisobining ahamiyati yoritilib, hisob ma‘lumotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [6].

Belobjeckiy I.A.ning buxgalteriya hisobotligi va metodlariga bag‘ishlangan asarida hisob usullari, moliyaviy hisobotlarning shakllantirilishi va ularning tahliliy imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu manba tayyor mahsulotlar hisobining hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilishi moliyaviy axborot ishonchliligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [7]. Dusmuratov R.D.ning “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” asarida esa buxgalteriya hisobining fundamental tushunchalari, prinsiplari va usullari yoritilib, ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq hisob obyektlari tizimli ravishda tahlil qilingan [8]. To‘qimachilik sanoati korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining tarmoqqa xos jihatlari ochib berilgan. Jumladan, Xankeldiyeva G.Sh. va Shakirova Yu.S. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda to‘qimachilik sanoatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilib, mahsulot tannarxini pasaytirish va hisobni samarali yuritish muhimligi ta‘kidlangan [11]. Muxtarov M.M.ning tadqiqotlarida to‘qimachilik korxonalarining iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinib, hisob va tahlilning boshqaruvdagi roli asoslab berilgan [12].

Boshqaruv hisobi masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlarda tayyor mahsulotlar hisobining ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, Pardayev A. hamda Pardayeva Z.A. tomonidan yozilgan asarlarda xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash va moliyaviy natijalarni rejalashtirish masalalari yoritilib, hisob ma‘lumotlaridan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan [10].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar to‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini takomillashtirish masalalarining nazariy va amaliy jihatlari yetarli darajada o‘rganilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur masalalarni zamonaviy bozor sharoitlari va korxonalar faoliyatining real holati bilan uyg‘unlashtirgan holda yanada chuqur tadqiq etish zarurati mavjud.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlari bilan bog‘liq hisob amaliyoti o‘rganilib, uning moliyaviy natijalarga ta‘siri tahlil qilindi.

Shuningdek, amaldagi buxgalteriya hisobi standartlari, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida hisob tizimini takomillashtirish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot davomida hisob jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobi ma‘lumotlaridan analitik foydalanish usullari qo‘llanildi. Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanib, ularning moliyaviy natijalarga ta‘siri baholandi. Hisob ma‘lumotlarini tizimli tahlil qilish orqali ishlab chiqarish jarayonidagi ichki zaxiralarni aniqlash va hisobni takomillashtirish imkoniyatlari asoslandi. Tadqiqot davomida olingan xulosalar mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy tahlil usullari yordamida shakllantirildi.

Shu asosda, to‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini yuritish jarayonida mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Xususan, ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri guruhlash, tayyor mahsulot tannarxini aniqlash hamda sotish jarayonlarini hisobda aks ettirishning aniqligi moliyaviy natijalarning haqqoniyligini ta‘minlashda muhim omil ekanligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini takomillashtirish korxonalarda daromad va xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Hisob jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va analitik hisobni rivojlantirish orqali korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Umuman olganda, tadqiqot davomida olingan natijalar to‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini chuqurroq yoritib berishga hamda amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobining samarali tashkil etilishi ishlab chiqarish tannarxini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Mahsulot tannarxining to‘g‘ri hisoblanishi narx belgilash jarayonini asoslash, foyda miqdorini rejalashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Sotish jarayonida tayyor mahsulotlar harakatini hisobda to‘liq aks ettirish daromadlarni o‘z vaqtida tan olishga xizmat qiladi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda korxonalar faoliyatining real holatini aks ettirishga yordam beradi. Hisob ma‘lumotlaridan tahliliy foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tayyor mahsulotlar hisobini takomillashtirish korxonalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari tayyor mahsulotlar hisobini takomillashtirish masalalarini faqat buxgalteriya hisobining texnik jihatlarini bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Ushbu jarayonni ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy rejalashtirish tizimlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish zarurligi aniqlandi. Tadqiqotda bildirilgan xulosalar va takliflar to‘qimachilik korxonalarida hisob tizimini yanada rivojlantirish hamda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida tayyor mahsulotlar hisobini samarali tashkil etish korxonalar faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Xususan, hisob ma‘lumotlarining aniqligi ishlab chiqarish jarayonida resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda foyda marjasini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, hisob va tahlil o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik korxonalar boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq axborotlarning o‘z vaqtida va ishonchli shakllantirilmasligi boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi. Shuning uchun hisob tizimida analitik hisob elementlarini kuchaytirish, mahsulot turlari, sotish kanallari va bozor segmentlari kesimida tahlilni yo‘lga qo‘yish zarurati yuzaga keladi. Bu esa korxonalar rahbariyatiga strategik va operativ qarorlar qabul qilishda muhim axborot bazasini yaratadi.

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, tayyor mahsulotlar hisobini takomillashtirish nafaqat moliyaviy natijalarni yaxshilash, balki korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hisob va tahlil natijalaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish va sotish jarayonlaridagi ichki xaziralarni aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar to‘qimachilik korxonalarida hisob va moliyaviy boshqaruv tizimini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, tayyor mahsulotlar hisobida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hisob jarayonlarining tezkorligi va ishonchliligini oshiradi. Avtomatlashtirilgan hisob tizimlari orqali ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ma‘lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirish, ularni tahlil qilish hamda nazorat qilish imkoniyati kengayadi. Bu esa korxonalarda hisob axborotlarining

shaffofligini ta'minlab, moliyaviy natijalarni prognozlash va strategik rejalashtirish jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, to'qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini takomillashtirish hozirgi bozor sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Hisob jarayonlarining aniqligi va shaffofligi moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlashga, boshqaruv qarorlarini asoslashga va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar va takliflar to'qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini yanada rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tahlil jarayonida tayyor mahsulotlar hisobining mavjud amaliyoti va uning samaradorligi baholanib, aniqlangan kamchiliklarning sabablariga e'tibor qaratildi. Tayyor mahsulotlar tannarxini shakllantirishda xarajatlarning to'g'ri guruhlanmasligi va sotish jarayonida hisob ma'lumotlarining kechikib aks ettirilishi moliyaviy natijalarning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslab berildi. Shu bilan birga, hisob jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish tahliliy imkoniyatlarni kengaytirishi va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishi qayd etildi

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-son. <https://test.lex.uz/en/docs/-2931253>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7330228>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-mayidagi “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-71-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7486412>
5. Abdusalomova N.B., Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot, 2021. 283 b.
6. Abduvaxidov F., Jo'rayev N.Yu., Sotivoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2012. 480 b.
7. Белобжецкий И.А. Бухгалтерская отчетность и методы. М.: «Финансы и статистика», 2015.256 с.
8. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: “Yangiyul polygraph service”, 2020. 495 b.
9. Pardayev A. “Boshqaruv hisobi”. O'quv qo'llanma – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2002.
10. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. T.: “Tafakkur”, 2014
11. Xankeldieva G.Sh., SHakirova Yu.S. “To'qimachilik sanoati korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish”, Monografiya, Fargona, 2021.
12. Muxtarov M.M. “To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish” Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Andijon, 2023.
13. Norma.uz — O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha huquqiy axborot portali. <https://www.norma.uz>
14. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
15. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali <https://gov.uz/uz/imv>